

INGLIZ TILIDA “KIYIM-KECHAK” LEKSIK-SEMANTIK MAYDONI TAHLILI VA LISONIY MISOLLAR

Xoliqova Sh.O‘.

TTYSI, “O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrasi katta o‘qituvchi,
mustaqil izlanuvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21889570>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilidagi «Kiyim-kechak» leksik-semantik maydonining iyerarxik tuzilishi, uning yadro, markaz va periferiya zonalari hamda lisoniy birliklarning gipero-giponimik va sinonimik munosabatlari tahlil qilinadi. Izohli lug‘atlar asosida *clothing*, *clothes* va *garment* leksemalari maydonning tayanch yadro unsurlari sifatida asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: leksik-semantik maydon, yadro, periferiya, giperonim, giponim, kiyim-kechak leksikasi.

АНАЛИЗ И ЯЗЫКОВЫЕ ПРИМЕРЫ ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКОГО ПОЛЯ «ОДЕЖДА» В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. В статье исследуется иерархическая структура лексико-семантического поля «Одежда» в английском языке, включающая ядро, центр и периферийные зоны, а также гиперо-гипонимические и синонимические отношения его единиц. На основе толковых словарей обоснован статус лексем *clothing*, *clothes* и *garment* как ядерных элементов данного поля.

Ключевые слова: лексико-семантическое поле, ядро, периферия, гипероним, гипоним, лексика одежды.

ANALYSIS AND LINGUISTIC EXAMPLES OF THE LEXICAL-SEMANTIC FIELD "CLOTHING" IN ENGLISH

Abstract. This article analyzes the hierarchical structure of the lexical-semantic field "Clothing" in English, identifying its core, center, and peripheral zones, as well as the hypero-hyponymic and synonymic relations among its units. Based on explanatory dictionaries, the lexemes *clothing*, *clothes*, and *garment* are substantiated as the core elements of the field.

Keywords: lexical-semantic field, core, periphery, hypernym, hyponym, clothing vocabulary.

Zamonaviy tilshunoslikda leksik birliklarni tizimli va struktural tahlil qilishda maydon nazariyasi yetakchi metodologik yondashuvlardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, kiyim-kechak leksikasining semantik tabiatini tadqiq etish mazkur tizimning ichki strukturaviy va iyerarxik munosabatlarini ochib berish imkonini yaratadi. Maydon tuzilishiga oid an‘anaviy qarashga tayangan holda, uning tarkibida yadro, markaz (yadro atrofi zonasi) va periferiyani ajratib ko‘rsatamiz. Maydon yadrosini (nomini) aniqlash uchun uning integral semasini ajratib olish talab etiladi. Bu o‘rinda *clothing* (kiyim-kechak) leksemasi integral sema vazifasini bajaradi. Maydon yadrosini ajratishda ingliz tilining izohli va etimologik lug‘atlariga tayanildi. Maydonning arxisemasi, ya‘ni umumiy ma‘noni ifodalovchi birligi — «things that you wear» (*siz kiyadigan narsalar*) hisoblanadi. Shunday qilib, ingliz tilidagi leksik-semantik maydonning yadrosi (nomi) — «clothing» leksemasidir.

Oksford ingliz tili tezaurus izohli lug‘ati materiallari asosida «Kiyim-kechak» leksik-semantik maydonini tashkil etuvchi quyidagi lisoniy birliklar ajratib olindi: *apparel*, *array*,

attire, clobber, clothes, clothing, costume, dress, duds, fig, garb, garment, gear, get-up, glad rags, habiliment(s), habit, mocker, outfit, rags, raiment, rig, rig-out, suit, suiting, things, threads, toggery, togs, vestment(s), vesture, wardrobe, wear. Tadqiqot natijalariga tayanib, *clothing, clothes* hamda *garment* birliklarini ushbu maydonning markaziy yadrosiga kiritish maqsadga muvofiq deb topildi. Bo'lib o'tgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur leksemalar o'zining stilistik neytralligi va semantik qamrovining kengligi bilan ajralib turadi hamda maydon strukturashunosligida boshqa hosila unsurlarning ma'nosini belgilab beruvchi tayanch mezon vazifasini o'taydi. Shu sababli, yadro unsurlari sifatida belgilangan ushbu leksemalarning lug'aviy ta'riflarini atroflicha tahlil qilish taqazo etiladi. Oksford ingliz tili tezaurus lug'atining empirik ma'lumotlariga ko'ra, «Kiyim-kechak» leksik-semantik maydoni tarkibiga kiruvchi birliklar 1-2-jadvallarda tahlil qilindi.

«Kiyim-kechak» LSMiga mansub leksik birliklar tahlilda

Manba	Leksik birliklar
Oksford tezaurusi	<i>apparel, array, attire, clobber, clothes, clothing, costume, dress, duds, fig, garb, garment, gear, get-up, glad rags, habiliment(s), habit, mocker, outfit, rags, raiment, rig, rig-out, suit, suiting, things, threads, toggery, togs, vestment(s), vesture, wardrobe, wear</i>

2-jadval. «Kiyim-kechak» LSMiga mansub leksik birliklarning stilistik tabaqalanishi

Tabaqalanish darajasi	Leksik birliklar	Stilistik tavsifi / Semantik xususiyati	Birliklar soni
Yadro va neytral birliklar	clothing, clothes, garment, dress, wear, outfit, wardrobe	Nutqiy uslub bilan chegaralanmagan, umumiste'moldagi universal va stilistik neytral so'zlar.	7 ta
Rasmiy va kitobiy birliklar	apparel, attire, raiment, vestment(s), vesture, habiliment(s), array, garb	Badiiy adabiyot, rasmiy hujjatlar va arxaik matnlarda uchraydigan ko'tarinki ruhdagi so'zlar.	8 ta
So'zlashuv va jargon birliklari	clobber, duds, fig, gear, get-up, glad rags, mocker, rags, rig, rig-out, threads, toggery, togs, things	Norasmiy muloqot, sleng va maishiy nutqda qo'llaniladigan ekspressiv birliklar.	14 ta

Tabaqalanish darajasi	Leksik birliklar	Stilistik tavsifi / Semantik xususiyati	Birliklar soni
Maxsus va sohaga oid birliklar	costume, habit, suit, suiting	Muayyan kasb, diniy libos, teatr yoki mato turiga nisbatan qo'llaniladigan tor semantik birliklar.	4 ta

Nufuzli izohli lug'atlar tahlili ham ushbu qarashni tasdiqlaydi. Xususan, «Macmillan English Dictionary» (2002) lug'atida *clothing* birligiga «umuman kiyim-kechak yoki xos turdagi kiyimlar» deb ta'rif berilgan bo'lsa, «Longman Dictionary of Contemporary English» elektron manbasida ushbu leksema «odamlar kiyadigan kiyim-kechaklar» sifatidagilarcha talqin qilinadi. Izohli manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, *clothes* leksemasi «Macmillan English Dictionary» (2002) lug'atida, birinchidan, «ko'ylak, shim kabi inson kiyadigan buyumlar», ikkinchidan, «ma'lum bir faoliyat, tadbir, yil fasli yoki muayyan guruh vakillari uchun mo'ljallangan kiyim-kechaklar» deb sharhlanadi. Mazkur birlikka «Longman Dictionary of Contemporary English» elektron resursida «badanni yopish hamda issiq saqlash vositasi», «Oxford Dictionary of Current English» (2006) manbasida esa «tanani to'suvchi vositalar» sifatida ta'rif berilgan.

O'z navbatida, *garment* birligi yuqorida qayd etilgan manbalarning barchasida («Longman», «Macmillan» hamda «Oxford Dictionary of Current English») kiyim-kechakning alohida bir bo'lagi, elementi yoki yakka buyumi sifatida bir xil ma'nodosh izohlangan.

Shunday qilib, ingliz tilidagi «Clothing» leksik-semantik maydoni ko'p pog'onali va iyerarxik tuzilishga ega murakkab tizim bo'lib, o'z ichiga *women's wardrobe* (ayollar garderoibi), *men's wardrobe* (erkaklar garderoibi), *accessories* (aksessuarlar) hamda *footwear* (poyabzal) kabi qator mikromaydonlarni qamrab oladi.

Mazkur leksik-semantik maydonning yaqin periferik zonasi «usage conditions» (qo'llanish sharoitiga ko'ra: *outwear (overcoat) clothes* — ustki kiyimlar, *lingerie* — ichki kiyimlar, *hosiery* — paypoq-paypoq buyumlari, *home wear* — uy kiyimlari) hamda «purpose» (vazifaviy mo'ljallanishiga ko'ra: *casual wear* — kundalik, *sportswear and active wear* — sport va faol harakat kiyimlari) kabi guruhlardan shakllanadi. Uzoq periferiya qismini esa «according to the structure» (konstruktiv tuzilishiga ko'ra: *shoulder* — yelka, *waist* — bel kiyimlari) va «season» (mavsumiy belgilariga ko'ra: *summer* — yozgi, *winter* — qishki, *for spring and autumn wear* — bahoriy-kuzgi, *year-round* — demisezon/mavsum tanlamaydigan) birliklari tashkil etadi.

Ta'kidlash joizki, «men's wardrobe» (erkaklar garderoibi) mikromaydoni tarkibida «formal wear» (rasmiy tusdagi kiyimlar) birligi giponimik maqomga ega. Umuman olganda, tahlilga tortilgan «Kiyim-kechak» leksik-semantik maydoni unsurlari o'zaro gipero-giponimik hamda sinonimik munosabatlar vositasida birikadi.

Har bir guruh tarkibiga kiruvchi leksik birliklar o'zaro sogiponimik hamda sinonimik munosabatlarni namoyon etadi. Tadqiqot doirasida ingliz tilidagi «Kiyim-kechak» leksik-semantik maydoniga daxldor bo'lgan 245 ta lisoniy birlik ajratib olindi. Bu tizimda *Women's*

wardrobe (Ayollar kiyimlari) mikromaydoni quyidagi gipero-giponimik unsurlar majmuasini o'z ichiga oladi:

1. Ustki kiyimlar (Outerwear): *anorak* (anorak), *blazer* (bleyzer), *bolero* (bolero), *bomber jacket* (bomber/zamokli charm kurtka), *cagoule* (kapushonli suv o'tkazmaydigan plash), *cape* (keyp), *capote* (kapushonli uzun plash), *car coat* (avto-palto/kaltalangan palto), *denim jacket / jeans jacket / levi's jacket* (jinsi kurtka), *down jacket* (puxovik), *dreadnought* (drednout/qalin matoli palto), *duffle coat* (daflkot), *eton jacket* (Iton ko'rinishidagi kalta kurtka), *frock coat / frock* (syurtuk), *inverness* (engsiz kapushonli plash), *leather jacket* (charm kurtka), *mackintosh / mac / mack* (makintosh), *manteau* (manto), *parka* (parka), *pea coat* (bushlat), *pelerine* (pelerina), *rain jacket / raincoat* (yomg'irlik), *redingote* (redingot), *spencer* (spenser/kalta kurtka), *trench coat* (trenchkot/trench), *windbreaker* (vetrovka).

2. Paypoq mahsulotlari (Hosiery): *bobby socks* (qaytarma paypoq), *leg warmers* (getra), *socks* (paypoq), *stockings* (chulki), *tights / pantyhose* (kalgotka).

3. Uy va uyqu kiyimlari (Domestic & Nightwear): *bathrobe / dressing gown / housecoat* (xalat), *bloomers* (blumers), *nightgown / nightdress / nightie / nightshirt* (tungi ko'ylak), *pyjamas (pajamas)* (pijama).

4. Shimlar va shortilar (Trousers, Pants & Shorts): *baggies* (keng shim), *bermuda shorts* (bermuda shortisi), *bootcut trousers* (butkat shimi), *cigarette pants / skinny / drainpipes / stovepipes / pencil pants / skinny pants / skinnies / slim-fit pants* (tor/dudochka shimlar), *cropped pants* (kaltalangan shim), *cut-offs* (kalta kiyim/shorchi), *cycling shorts* (velosipedka), *hipsters* (xipster shimi), *hot pants* (juda kalta shorti), *jeans* (jinsi), *leggings* (legginsi/losina), *pedal pushers* (tizagidan past shim), *shorts* (shorti), *skorts* (yubka-shorti), *sweatpants* (sport shimi), *trousers / pants* (shim).

5. Kostyumlar va kombinezonlar (Suits & Jumpsuits): *suit* (kostyum), *boiler suit* (engli kombinezon), *business suit* (ishchi/amaliy kostyum), *cat suit* (ketsyut), *double-breasted suit* (ikki bortli kostyum), *dungarees* (kombinezon), *overall / coverall / over all* (kombinezon), *shell suit / track suit* (sport kostyumi), *single-breasted suit* (bir bortli kostyum), *trouser suit / pantsuit* (shimli kostyum), *two-piece suit* (ikki qismli klassik kostyum).

6. Trikotaj kiyimlar (Knitwear / Sweaters): *sweater / jumper* (djemper/sviter), *aran* (aran uslubidagi sviter), *bolero* (bolero), *cardigan / cardigan jacket / cardie* (kardigan/kofta), *crewneck* (dumaloq yoqali jemper), *polo neck / turtleneck* (vodolazka), *pullover* (pulofer).

7. Yubkalar (Skirts): *skirt* (yubka), *hobble skirt* (etagi tor yubka), *miniskirt* (mini-yubka), *pencil skirt* (yubka-qalam), *pleated skirt* (plissirovkali yubka), *wraparound (skirt)* (zamonaviy/o'raladigan yubka).

8. Bluzka va futbolkalar (Blouses & Tops): *blouse / body shirt* (bluzka), *button down / dress shirt* (tugmali bluzka), *crop top / cropped top / belly shirt / halfshirt / midriffshirt / tummy top / short shirt / cutoff shirt* (kalta top/futbolka), *polo shirt* (polo futbolka), *tank top / top* (top/mayka), *tee-shirt / t-shirt* (futbolka).

9. Ko'ylaklar (Dresses): *dress* (ko'ylak), *ballgown* (bal ko'ylagi), *cocktail dress* (kokteyl ko'ylagi), *granny dress* (uzun erkin ko'ylak), *kaftan (caftan)* (kaftan), *pinafore* (sarafan), *strapless dress* (lyamkasiz ko'ylak), *wrap-dress* (ost-ust yopiladigan ko'ylak).

Umuman olganda, ingliz tilidagi «Kiyim-kechak» leksik-semantik maydoni moslashuvchan va dinamik tizim bo'lib, lisoniy birliklarning semantik neytrallikdan tor ixtisoslashuvgacha bo'lgan barcha bosqichlarini qamrab oladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Bullon, S. (Ed.). (2008). *Longman Dictionary of Contemporary English* (5th ed.). Harlow: Pearson Longman.
2. Cowie, A. P. (Ed.). (2006). *Oxford Dictionary of Current English* (4th ed.). Oxford: Oxford University Press.
3. Rundell, M. (Ed.). (2002). *Macmillan English Dictionary for Advanced Learners*. Oxford: Macmillan Education.
4. Waite, M. (Ed.). (2012). *Oxford Paperback Thesaurus* (4th ed.). Oxford: Oxford University Press.
5. Уфимцева, А. А. (2002). *Лексика и лексико-семантическая система языка*. Москва.
6. Васильев, Л. М. (1990). *Современная лингвистическая семантика*. Москва: Высшая школа.
7. Trier, J. (1931). *Der Deutsche Wortschatz im Sinnbezirk des Verstandes: Die Geschichte eines sprachlichen Feldes*. Heidelberg: Carl Winter Universitätsbuchhandlung.